



KOMPANIYA KOMPLAYENS MODELAR MATBUOT XIZMATI GALEREYA ALOQA UZ



Shu yilning 19 noyabr kuni "BYD Uzbekistan Factory" qo'shma korxonasida departament rahbarlari uchun korrupsiyaga qarshi kurash masalasida komplayens trening o'tkazildi.

Ushbu tadbir — rahbar xodimlarda komplayens madaniyatini shakllantirish, ya'ni qonunlarga rioya qilish, halollik va shaffoflik tamoyillarini kundalik ish jarayoniga singdirishga alohida e'tibor qaratildi.

Trening davomida quyidagi muhim masalalar yoritib o'tildi:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining asosiy talablari;
- BYD Uzbekistan Factory ning komplayens va etika sohasidagi ichki siyosatlar;
- Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va oldini olish tartibi;
- Ehtimoliy korrupsion sxemalarning belgilarini aniqlash;
- Xatti-harakat algoritmi va xabar berish tartibi;
- Xodimlar va rahbarlarning javobgarligi;
- Halollik muhitini shakllantirishda rahbarlar roli.

Xuddi shu kabi treningda amaliy misollar, tipik xatolar tahlili, ichki me'yoriy hujjatlar bilan ishlash va «nol tolerantlik» tamoyilini amaliyotga joriy etish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Komplayens xizmati